

“TIRILISH KOMPLEKSI”

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lif
yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Yusupova Afruza Hasan qizi
Xurramova Sabrina Alisher qizi
Shomurodova Sevinch To'lqin qizi*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada “Tirilish kompleksi” Chaqaloqlik davri psixologik xususiyatlari Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar , Tug'ilish davri inqirozi , Go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emot-sional muloqotning axamiyati (emotsional deprivatsiyaning salbiy oqibatlari) ba-tafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Psixofiziologik, go'daklik, muloqot , turli davr inqirozi, cheklangan xulq-atvor, muqarrar- reflektor shakillari, tetiklanish kompleksi, intellekt (aqliy fa-oliyat).

Kirish.

Psixalogiya soxasini taraqqiy etishi uchun sarflangan invitsitsiyalar ortig'I bilan qaytishiga shubxa yo'q.

SH.M.Mirziyoyev.

Tug'ilish davri inqirozi “Tirilish kompleksi” Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar , ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari , bir yosh inqirozi , ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari, ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 – yosh inqirozi, go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqot-ning axamiyatlarini o'z ichiga oladi.Go'daklikdagi psixologik rivojlanish asoslari va xususiyatlari chaqaloqlik (tug'ilgandan boshlab bir-ikki oylikgacha).Bola ko'pchilik jonivorlarning bolasiga qaraganda ancha ojiz tug'iladi . U nisbatan cheklangan xulq-atvor,tashqi olamga moslashishning muqarrar-reflektor shakillari jamg'ar-masiga ega bo'ladi. Tug'ma xulq-atvor shakillarining kamligi bola kuchsizligini emas, kuchini tashkil etadi – u deyarli cheksiz aqliy rivojlnish , xulq-atvorning yangi shalikllariga ega bo'lishning yangi tajribalarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Chaqaloq rivojlanishining farqli xususiyatlari shuki , uning analizatorlari faoliyati somatik (jismoniy) harakatlarga qaraganda tezroq shakillanadi. Shu asosda munosabat refleksi rivojlanadi va xilma-xil shartli reflektor aloqalari shakillana boshlaydi. Chaqaloqlik davri oxiri va

go'daklikning boshlanishida "tetiklanish kompleksi" – kattalarning paydo bo'lishiga munosabat bildirish paydo bo'ladi. Go'daklikda (bir-ikki oylikdan bir yoshgacha) go'dak to'laligicha kattalarga bog'liq bo'ladi (uni ovqatlantirishadi, yuvuntirishadi , ag'darib qo'yishadi , qo'lga olishadi sayr qildirishadi, allalashadi, gapirishga , yurishga o'rgatishadi). Xayotning birinchi yili so'ngiga kelib go'dak ayrim so'zlarni tushunadi va ilk so'zlarni ayta boshlaydi . Tasodifan odamlar davrasidan chiqib qolgan inson bolasi o'z rivojlani-shida insoniy imkoniyatlar darajasigacha ko'tarila olmaydi . Faqat ijtimoiy muxit va ta'lim natijasidagina bolada insonlarcha his qilish va fikirlashga qodir shaxsiyat shakillanadi . Go'daklik so'ngida bolalar kattalarga taqlid qila boshlaydilar. Maq-sadli xarakat va taqlid intensive rivojlanayotgan intellektdan (aqliy faoliyatdan) dalolat beradi. Bola xarakat jarayonida o'zining va boshqalarning harakatlariga taqlid qilib fikirlashga o'rganadi. Go'daklikdagi psixolgik rivojlanish asoslari va xususiyatlari chaqaloqlik (tug'ilganidan boshlab bir – ikki oylikgacha) . Chaqaloq boshqa yosh davridagi odamlarga qaraganda kuchsiz , zaif, ojiz ko'rinsa – da , ba'zi jixatlari bilan kattalardan ustunlik qiladi. E.A.Arkinning fikricha , chaqaloqlik davri-ning kuchli jixatlari ko'pincha uning o'sish quvvatida o'z ifodasini topadi . U har oyda ikki sm dan o'sadi , uning og'irligi har kuni 1,6-2 grammdan ortib boradi. Uning shiddatli sur'at bilan o'sishi ko'proq individning vegitativ nerv sestemasi ichki sekretsiya (buqoq, qalqon, osti va usti) bezlarning faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuni aloxida takidlash lozimki , ichki sekretsiya bezlari ishlab chiqargan maxsus garmonlar qonga , organizmning jismoniy o'sishini belgilaydi. Chaqaloqning jadal sur'atda o'sishi shu davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib , uning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar ovqat, sof xavo, quyosh nuri, nafas olish , parvarish. Bola bir oyga to'lгach o'zini parvarish qilayotgan odamga intiladigan , talpinadigan bo'ladi va buning misoli tariqasida uning kishilar orasida "o'z" kishisini tanishi va ajratishini aytish mumkin. Mazkur psixologik holatni N.L.Figurin va M.P.Denisovlar "jonlanish" deb ataganlar. Bu davrda , bolaning psixik dunyosida tetiklik , his-tuy-g'usida esa atrof-muhitdan ta'sirlanishi o'z aksini topadi . Ularning fikricha , bola-ning katta yoshdagи odamlarga o'z munosabatini bildirishi uning bundan keyingi o'sishini belgilovchi bosqich vazifasini o'taydi . Psixolog E.K.Kaverina bolaning tashqi ta'siriga javob bildirishini tadqiq qilib , unda odamning va jismlarga munosabat bir xillagini ta'kidlaydi. Uning fikricha , insonning aft-angoriga his-tuy-g'ular uyg'onishi keyinchalik vujudga keladi. Tasirga berilish va tasirlanishning mazkur shakli bola bilan kattalar o'rtasidagi aloqaning boshlang'ish ko'rinishi xisoblanadi . Shaxslar aro aloqaning bu shakli chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlanishidan dalolat beradi.Psixolog D.B.Elkonin nazaryasiga ko'ra chaqaloqlik davridan ilk bolalik , go'daklik davriga o'tishning o'ziga xos xususiyat-lari mavjuddir . Ma'lumki bola tug'ilishi va rivojlanish davri va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar kishilik jamiyati taraqqiyoti turli davrlarda xam o'z dolzarbligini yo'qotmagan va shunday

bo'lib qoladi. O'tgan ajdodlarimizning qomusiy asarlarida bola taraqqiyoti va tarbiyasi masalalari katta o'rinn egallaydi . Abu Nasir Farobiyning " Masalalar moxiyati " , Abu Rayxon Beruniyning " O'tmish yodgorliklari " , Ibn Sinoning " Tib qonunlari " , asarlari , A. Navoiyning " Maqbub ul qulb " asarlari shular jumlasidandir. Psixik taraqqiyotning bir bosqichidan ikkin-chisiga o'tish bosqichlarida yosh krizislari yuz beradi yani inqirozi . Krizislар ikki yosh davri oralig'ida yuz bergenligi sababli bir yosh davrining tugashi va ikkinchi yosh davrining boshlanishiga to'g'ri keladi . Barcha yosh krizislari bazi umumiylar belgilarga ega bolalar kirizislар davrida qaysar , asabiy bo'lib qoladilar , kattalar bilan nizolar paydo bo'ladi , avvalo bajaradigan ishlarini qilishdan bosh tortadilar , krizislар davrida paydo bo'ladigan yangi extiyojlari qondirilmaydigandan bolalar shunday reaksiya namayon qiladilar , shaxsning ontogenizidagi ijtimoiy rivojlanish ikki yo'naliishda ishtimoylashuv va individuallashuv ko'rinishida bo'ladi. Bola organizimiga o'zini saqlash va rivojlanishiga yordam beruvchi jarayonlar guruxi tug'ma ravishda berilishini aloxida aytib o'tish joizdir . Ular ovqat xazim qilish qon aylanish , nafas olish tana harorati , moddalar almashinushi jarayonlari boshqarish bilan bog'liq. Tug'ilganidan boshlab bolaning nafaqat sezgi orginlari ishlashga tayyorgarligi ma'lum bo'lmay balki bosh miyyasi xam faol ishlay boshlaydi . Ko'p-chillik psixologlar tug'ilgandan voyaga yetgunga qadar insonning psixolog rivoj- lanish yo'lining o'rtasi uch yosh hisoblanadi . Uch yoshli bolalar o'z o'ziga xizmat qila oladi , atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishishni biladi bunda u og'izaki muloqatga kirishishni biladi unda xulq – atvorning eng oddiy shakillari shakillanadi . Chaqaloqlik davri oxiri va go'daklikning boshlanish davri " tirilish kompleksi" deb ataladi va bu davrda kattalarning paydo bo'lishiga munosabat bil-dirish paydo bo'ladi .

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda "Tirilish kompleksi " – chaqaloqlik davri oxiri va go'daklik- ning boshlanish davri hisoblanadi . Go'daklik davri bolaning tugaganidan bir yoshlarigacha bo'lgan davrini o'z ichiga olib , bu davrda bola tashqi muxitga mos -lashishi uchun ma'lum darajada yetilgan nerv tizimi hisoblanadi. Go'daklik davri inson hayotidagi organic ehtiyojlarini (kislorodga , ovqatga issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti-xarakatning tug'ma , instinctav shakillari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi .

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Nishanova Z.T., Do'stmuxamedova Sh .A .,, Tulyaganova Sh. T. Redagogik psixologiya . -T.; Fan va texnalogiyalar markazining nosmaxonasi 2018 .
2. Davletshin M. G. Umumiylar psixologiya . T ., TDPU, 2011 .
3. Ivanova I ., Zufarova M. Umumiylar psixologiya . O'z . FMJ., 2014 .
4. Davlatshin M.G., Do'ptmuxamedova Sh.A ., Movlonov M.M. To'ychieva S.M., "Yosh va pedagogik psixologiya ". T.TDPU , 2010 .